

III MODUL.

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR SHAXSINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

9-Mavzu. Nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalar hissiy-irodaviy soxasi xususiyatlari

Reja:

1. Nutq buzilishlarida hissiy-irodaviy soxa xususiyatlari.
2. Nutqida kamchiligi bor bolalarning hissiy-irodaviy soxasidagi buzilishlarining diagnostikasi.

Tayanch iboralar: shaxs, hissiy rivojlanish, hissiy-irodaviy, buzilish, xususiyat, kayfiyat, psixik holat, emosiya, qoniqish, quvonch, qo‘rquv.

His-tuyg‘ular (aqliy jarayon sifatida) odamda kechinmalar (ichki) va mimika, pantomima, ovozli mimika va bir qator hodisalar (tashqi) orqali ifodalanadi. Tajribalar ko‘rinishidagi his-tuyg‘ular ob’ektlar va hodisalarning o‘zini emas, balki ular shaxsga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi. Umuman olganda, hissiyotlar (sezgilar bilan bog‘liq bo‘lgan sodda tuzilma sifatida) insonni atrof-muhit bilan munosabatlarini tartibga soladi va hissiyotlar (insonning fikrlash va tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkabroq tuzilma sifatida) uning shaxs sifatidagi munosabatlarini belgilaydi.

- Hissiy emosional holatlarga quyidagilar kiradi:
- Hissiyot
- Emosiya
- Kayfiyat
- Stress

Hissiyot deb-tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo‘lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Hissiyotlar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta’siri bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi.

Emosiya- shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir.

- **Kayfiyat** – shaxsning kuchsiz yoki o‘rtacha kuchga ega bo‘lgan nisbatan barqaror umumiy emosional holati bo‘lib, insonning butun xatti-harakatiga tus berib turadigan psixologik holatdir.
- **Stress**- inson organizmini haddan tashqari zo‘riqish natijasida paydo bo‘ladigan tanglik jarayonidir. Stress ikki hil ko‘rinishda bo‘lib:
- **Fiziologik stress**- o‘ta jismoniy zo‘riqish biror og‘riq, qo‘rquv ko‘pincha kasalliklar natijasida yuzaga keladi.
- **Psixologik stress**- odamning ruhiy holatiga voqealarni ta’siri tufayli paydo bo‘ladi.

Dislaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar hissiy-emosional holati tengdosh sog‘lom bolalarga nisbatan farqli emas. Ularda xis-tuyg‘uni uzatish va idrok qilish malakalari shakllangan. Hissiy-irodaviy holati har bir bolaning individual xarakter xususiyatlariga bog‘liq. Dislalik bolalarda qattiyat, erkin nutq, qo‘rquvlardan xoli irodaviy xususiyatlar shakllangan bo‘ladi.

Dizartriya nutq nuqsonida hissiy-emosional, hissiy – irodaviy buzulishlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

- Hissiy – emosional holatning yuqoriligi yani oshishi bilan kuzatiladi.

- Organizmda hissiy-irodaviy potensial oshishi natijasida ixtiyoriy bo‘lmagan asab tizimi uyg‘onishi va charchashi kuzatiladi.
- Tashqi reaksiyalarga kuchli moyillik va hissiy qo‘zg‘aluvchanlik yuqori bo‘ladi.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalar sog‘lom bolalardan farqli bo‘lib, hissiy-emosional holatida tashvishlanish, xatti-xarakatlar koordinasiyasida ham kuchli reaksiyalar bilan namoyon bo‘ladi. Ularda beqaror kayfiyat kuzatilib, gohida qo‘pollik va ko‘z yoshini tez-tez uchratishimiz mumkin.

Rinolaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda hissiy- irodaviy sohasida orqada qolishlar, kechikishlar mavjud. **M.Edvars** olib borgan tadqiqotlarida rinolalik bolalarda individual harakatlarning sekinligi, bir elementdan ikkinchi elementga o‘tish imkoniyatlarida sabr-toqat bilan yondoshish ularga xosdir. Og‘iz bo‘shlig‘ida sezgilarning o‘zgarishi natijasida suxbatga kirishishga bo‘lgan qiziqishning pastligi yoki umuman yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa bolalarda hissiy ta’sirchanlikni oshiradi o‘z ovozidan uyalish, tortinchoqlik, muloqot o‘rnatishdan qochish holatlarini ko‘rsatadi.

Korreksion ishda rinolaliya nutq nuqsonida xavotirlik yuqori bo‘lib va moslashish davrlarida bilish jarayonlariga tayangan xolda yosh normasiga nisbatan yumshoqlik va berilgan topshiriq vaqt meyorlarini uzaytirilishi kerak bo‘ladi. Moslashish davrida ham logoped rinolalik bola bilan yaqin aloqalarni o‘rnatishi zarur.

R.I.Martanova o‘z tadqiqotida duduqlanuvchi bolalar hissiy – emosional holatida kuchli asabiylashish, ta’sirchanlik, tez ko‘z yosh to‘kish holati, gohida tajovuzkorlik namoyon bo‘lganligini e’tirof etgan. Ushbu toifadagi bolalar atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik, vahimaga tushish, qo‘rquv, hayajonning yuqoriligi natijasida tez-tez terlash kuzatiladi. Mana shunday bolalarning ayrimlari tengdoshlari bilan urushqoq qo‘pol munosabatda bo‘ladilar. Ayrim bolalarda irodaviy yetuklik ustun kelib liderlik qobiliyatlari shakllanadi (faqat o‘z nuqsonidan uyalmaydigan bolalarda). Duduqlanuvchi bolalarda aqliy faoliyat yetakchilik qiladi. Hissiy- emosional holatida shoshqaloqlik, his-tuyg‘ularini tezroq bildirish, ba’zi

duduqlanuvchi maktab yoshidagi bolalarda o‘z nuqsonini tan olganlik holati shakllanib, muloqotni cheklash, xijolat qilish va o‘z nutqining holatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish boshlanadi, begona jamoaga kirishdan cheklanadi. Bu esa shaxs xususiyatlarini me’yorda rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Duduqlanuvchi bolalarda o‘z kuchlari va imkoniyatlariga ishonch yetishmaydi, bu holat salbiy shaxsiy xususiyatlarni rivojlanishiga olib keladi. To‘g‘ri tashkil qilingan korreksion ish va ta’lim-tarbiya tinch, do‘stona muhit mavjud qo‘rquvlarni bartaraf etib, ijobiy o‘z-o‘zini idrok qilishga va nuqsonini ongli ravishda yumshatishga harakatini boshlaydi.

Nemchin T.A., Marishchuk V.L. tadqiqotlarida his-tuyg‘ularning ikkita asosiy funksiyasi mavjud ekanligi ta’kidlanadi, yani:

- shaxsga ta’sir qiluvchi hodisalar va vaziyatlarning ahamiyatini bevosita tajribadan o‘tqazish (qoniqish, quvonch, qo‘rquv va boshqalar) shaklida aks ettirish;

- aqliy faoliyatni tartibga solish.

Tuyg‘ular turli xil kechinmalar shaklida namoyon bo‘ladi, ular orasida tashvish alohida o‘rin tutadi, u inson faoliyatidagi vaziyatlarga bog‘liq. Xavotirning oqibatlari uning darajasiga va faoliyatning murakkabligiga qarab o‘zgaradi. Nutq ayniqsa kuchli ta’sirga sezgirlik talab qiladigan jarayondir.

Duduqlangan odamlarning tashvish darajasini aniqlash alohida ahamiyatga ega, chunki psixoemotsional kuchayishi bilan, yani stress bilan ularning nutqi sezilarli darajada yomonlashadi va duduqlanishlar soni ortadi.

R.Erikson duduqlanuvchilarning nuqsoni haqida sub’ektiv tajriba darajasini diagnostika qilish imkonini beruvchi shkala yaratdi. R.Erikson texnikasi tashvishni differentsial baholash imkonini beradi:



Bu omillar:



Ma’lum bo‘lishicha, barcha duduqlanuvchilarda og‘zaki muloqotdan tashvishlanish mavjud. Bu nisbat duduqlangan odamlarda tashvishning tarqalish yo‘nalishini tasdiqlaydi va ular ma’lum bir ruhiy reaktsiya yuzaga keladigan, lekin birlamchi bo‘lmagan "asab faoliyatning buzilishi" bo‘lgan asosiy nutq nuqsoni bilan tavsiflanadi, deb aytishga imkon beradi.

Nutq texnikasi (nutq nuqsonining o‘zi) va ruhiy reaktsiya bilan bog‘liq tashvishlar eng aniq va doimiydir.

Xavotirli bolalarda sezgirlik kuchayadi, o‘zini past baholaydilar, ular bezovtalanadilar va doimo muammolarni, shu jumladan boshqalardan ham kutishadi. Bunday ko‘rinishlarning odatiy sababi - ota-onaning bolaga haddan tashqari talablari va ayniqsa, ularning qadr-qimmatini jazolash va kamsitish tendentsiyasi sabab bo‘ladi. Xavotirli bolalar o‘zlarining muvaffaqiyatsizliklariga juda og‘riqli munosabatda bo‘lishadi, ular ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladigan faoliyatdan bosh tortishadi. Ular odatda sinfda va darsdan tashqarida o‘zlarini boshqacha tutadilar. Sinfdan tashqari, bular jonli, ochiqko‘ngil va erkin bolalardir. Mashg‘ulotlar davomida ular keskin va tarang, ularning nutqi juda tez va shoshqaloq yoki sekin va mashaqqatli bo‘lishi mumkin.

Bunday bolalar uzoq vaqt hayajonlanishni boshdan kechirishadilar, bola kiyim yoki qo‘llari bilan biron bir narsani burash, o‘rash va nota’biiy harakatlar qiladi. Xavotirli bolalar ko‘pincha asabiylik sababli yomon odatlarga ega bo‘ladilar. O‘z tanasi bilan manipulyatsiyalar tirnoq tishlash, tagi bilan og‘ritib olish, tanadagi

terini ko‘chirish, yarasini qonatish va boshqalar yoki aksi o‘ta tartibli, o‘ta ozoda, o‘ta talabchanglik ularning hissiy stressini kamaytiradi va ularni tinchlantiradi.

Alalik bolalarga biror narsa o‘qilgan yoki aytilganda ular uzoq vaqt tinglay olmaydilar. Tarkibni tushunmasdan, ular qiziqishni yo‘qotadilar va tinglashni to‘xtatadilar. Bola yangi so‘z va tuzilmalarni sekin o‘zlashtiradi, nutqqa tanqidiy munosabatda bo‘lmaydi, xatti-harakatlarida tartibsiz, ko‘pincha noaniq harakat qiladi. O‘z navbatida, u o‘zlashtirgan nutq boshqa aqliy funktsiyalarni, xususan, hissiy-irodaviy fazilatlarni o‘z vaqtida shakllantirish uchun asos bo‘la olmaydi.

Bolalarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan bir qancha usullarni ko‘rib chiqamiz:

Mariya Montessorining tizimi – bu bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha dunyoda eng keng tarqalgan metodikalardan biri. Ushbu usul XX asr boshida ishlab chiqilgan bo‘lib, dastlab rivojlanishi kechikkan bolalar uchun mo‘ljallangan edi. Keyinchalik u barcha bolalar uchun moslashtirilgan. Metodikaning markazida bola turadi. U o‘ziga yoqqan ish bilan shug‘ullanish erkinligiga ega. Keyingi o‘rinda ta’lim muhiti turadi. U bir qancha zonalarga bo‘lingan. O‘qituvchi bolaning o‘zi qilmoqchi bo‘lgan ishni bajarishga yordam beradi. Metodikaning shiori: “Bolaga o‘zi mustaqil hamma narsani qilishiga yordam bering”. Bu tizimda muallif asosiy urg‘uni yozishga qaratgan, chunki bu ko‘nikma boshqalariga qaraganda muhim deb hisoblagan.

Rudolf Shtaynerning valdorf maktabi: Ushbu maktabning asosiy g‘oyasi ijodkorlik va madaniyatga tayanadi. Bolalar qo‘shiq kuylaydi, teatr tomoshalarida qatnashadi, rassomlik bilan shug‘ullanadi, ritmik raqslar ijro etadi va tabiiy materiallardan buyumlar yasaydi. Uyg‘un ritmik harakatlar metodikaning noyob qismi bo‘lib, bolalar har kuni bir necha bor faol harakatlar qilishadi. Bu usulning 2 tamoyili bo‘lib: ortiqcha shoshiltirmaslik tarbiyasi muallif bolalik davrining o‘ziga xosligini hurmat qilishni talab qilib, shu sababli intellektual ta’lim 7 yoshdan boshlanadi, voyaga yetganlarga taqlid qilish tarbiyasi bo‘lib, bolalar kattalar hatti-harakatini ro‘lli o‘yinlar orqali o‘rganadilar. Ushbu metodikaga televizor, kompyuter va gadjetlardan foydalanish cheklovi qo‘yilgan.

Glenn Domanning kartochkalar usuli: Amerikali shifokor va neyrofiziolog Glenn Doman asab tizimi zararlangan bolalarni davolash hamda intellektual rivojlanishiga yordam berdi. Keyinchalik u sog‘lom bolalarga ham moslashtirildi. Kartochkalar nima? Katta oq kartochkalar bo‘lib, ularda qizil nuqtalar hisoblashni o‘rgatadi, so‘zlar o‘qishni o‘rgatish uchun tasvirlangan. Kartochkalar turli soha mazmuniga ega masalan o‘simliklar, hayvonlar, fasllar.....

Ota-onaning vazifasi: har kuni bolaga bu kartochkalarni bir necha bora ko‘rsatishdir. Bu usuldan tizimli foydalanish erta nutq rivojlanishi, tezkor o‘qish qobiliyati, lug‘at boyligining oshishi va qiziquvchanlikni ta’minlaydi.

Sesil Lupanning takomillashtirilgan metodikasi: Muallif **Glenn Doman** usulini o‘z tajribasida takomillashtirgan ona bo‘lib, o‘z 2 qizalog‘i bilan tajribalar asosida ushbu uslubni boyitdi. Sesil individual yondoshuvni birinchi o‘ringa qo‘ydi. U kartochkalarga tinglash va ushlash elementlarini qo‘shdi. Bola kartochkalarni ko‘rish bilan kifoyalanmasdan, balki unga teginishi, ushlashi, bosib ko‘rishi mumkin. Natijada bu ovoz chiqarish imkonini beradi. Muallif keyinchalik barcha o‘quv fani sohalari - rasm chizish, musiqa, tarix, geografiya va boshqalarni kiritdi va uni takomillashtirdi.

Gan Ledloffning baxtli bola tarbiyasi metodikasi: Muallifning aytishicha, bola qancha xohlasa qo‘l davri shuncha davom etadi. Bola onaning barcha ishlarida ishtirok etadi, bu esa uning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi. Bolani jadval bo‘yicha emas, balki talabiga ko‘ra ovqatlantirish kerak. Ona bolani himoya qilmaydi, balki unga istalgan tajribani o‘zlashtirish erkinligini beradi. Bolaning o‘zi emas, balki faqat harakatlari baholanadi.

Masaru Ibukining tizimi: “uchdan keyin kech” katta shov-shuvga sabab bo‘lgan kitob. O‘z kasal farzandini ta’lim-tarbiyasida qo‘llash orqali yaratilgan usul. Muallif bolalar miyasi birinchi uch yillikda sodir bo‘ladi, shu bois bu davrda bolaga imkon qadar ko‘proq bilim va ko‘nikmalar berish kerak deb, hisoblagan. Ibukining ta’kidlashicha, bolalar uchun “oson” yoki “qiyin” degan tushunchalar yo‘q. Bolalar o‘yinchoqlarni qanday qabul qilsalar, ta’lim-tarbiyadagi madaniy ko‘nikmalarni ham shunday qabul qiladilar, shuning uchun qancha erta yosh davridan madaniyat,

san’at ko‘nikmalarini berish kerakligini, ko‘p o‘yinchoqlar berishni qoralaydi va bolalar tasavvurini cheklashi, e’tiborni chalg‘itadi degan xulosaga kelgan. Jismoniy rivojlanishni muhim deb hisoblagan sakrash, konkida uchish, suzish ko‘nikmalarini erta yosh davridan boshlash kerakligini isbotlagan.

Nikitinlar metodikasi: Boris va Elena Nikitinlar shaxsiy tajribalari asosida tarbiyaviy tizim ishlab chiqgan ota-ona. Ular avval birinchi farzandida usulni qo‘llay boshlaganlar har bir farzandi ko‘paygan sari bu metodikani ham kengaytirib ta’komillashtirib borganlar. Ularning farzandi 7 ta. Ota-onaning vazifasi bolaning signallarini tushunish, unga qiziqishlariga ko‘ra to‘liq erkinlik berish va mustaqil, uyg‘un shaxs sifatida tarbiyalashdir. Buning uchun ta’lim muhiti yaratilgan, maxsus jadvallar, sxemalar, xaritalar devorga joylashtirilgan. Jismoniy mashqlar uchun trenajyorlar mavjud. 1,5-5 yoshgacha bolalar uchun rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar kubiklar, piramidalar, boshqotirmalar taqdim qilinadi. Bundan tashqari bolani erta sovuqqa chidamliligini oshirish uchun sovuqda chiniqtirish usullarini ham qo‘llashgan. Bu usullar hissiy rivojlanishni ta’minlaydi, deb hisoblaganlar.

Nikolay Zaysevning bo‘g‘inli o‘qish metodikasi: Bolalarni 4yoshida bo‘g‘inli o‘qish ko‘nikmasini shakllantirgan. Bo‘g‘inlarni aks ettiruvchi maxsus kubiklar. Ushbu kubiklarda harflar, tovushlar yoki bo‘g‘inlar emas, balki aynan bo‘g‘inlar undosh va unli harflarning juftligi bo‘lib, bolalar ushbu kubiklar bilan o‘ynab, ulardan minoralar yoki poyezdlar qurishadi. Shu tariqa bolalar ko‘zi bo‘g‘inlarni o‘qish, farqlash ko‘nikmalarini osongina o‘yin jarayonidan keyin esa o‘qish malakalari shakllanadi. Zaysev nafaqat o‘qishga, balki matematika va ingliz tilini o‘rgatish uchun ham shunga o‘xshash tizimlarni ishlab chiqdi. Bu tizim bolani hissiy, ijtimoiy, aqliy rivojlanishini erta rivojlanishini ta’minlaydi.

Shalva Amonashvilining gumanistik pedagogikasi: Muallif yaratgan tizim nafaqat ta’lim-tarbiya, balki ota-ona, kattalar bilan bolalarni o‘rtasidagi munosabatlardagi devorni olib tashlab inqilob yaratgan falsafa bo‘lib hizmat qiladi. Asosiy g‘oya: barcha bolalarni kim bo‘lishidan qat’iy nazar, sevish va hurmat qilish. Amonashvili yomon bolalar bo‘lmaydi, faqat ularni tushunmaydigan ota-onalar va pedagoglar bor. Shu sababli u rivojlanishni hamkorlik orqali amalga oshirishni

taklif qiladi. Kattalar nazorat qilmaydi, bolani majburlamaydi va uni baholamaydi, aksincha unga tengdosh sifatida qaraydi va birgalikda harakat qiladi. Natijada bola mustaqil va har tamonlama rivojlangan shaxsga aylanadi, ota-onalar o‘rtasidagi ishonch va hurmatga asoslangan mustahkam munosabatlar o‘rnatiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M.Yu. Logopediya T.,2007.
- Денисова О.А.Детская психология. М.,2008.
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Hissiy emosional holatlarga nimalar kiradi?
2. Shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalar deb qaysi psixologik holatga aytiladi?
3. Psixoemotsional kuchayishi, yani stress bilan ularning nutqi sezilarli darajada yomonlashadi va tutilishlar soni ortadi, bu qaysi nutq nuqsoniga tegishli?
4. “Bolalarda individual harakatlarning sekinligi, bir elementdan ikkinchi elementga o‘tish imkoniyatlarida sabr-toqat bilan yondoshish ularga xosdir” bu qaysi olimning fikri va qaysi nutq nuqsoniga tegishli?
5. R.I.Martanova o‘z tadqiqotida qaysi nutqiy nuqsonga ega bolalar yani hissiy – emosional holatida kuchli asabiylashish, ta’sirchanlik, tez ko‘z yosh to‘kish holati, gohida tajovuzkorlik namoyon bo‘lganligini e’tirof etgan?